

O'ZBEK OILALARIDAGI AJRALISHLARNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI TADQIQOT OB'EKTI VA METODLARI TAVSIFI

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi, direktori, psixologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya:

Ushbu maqoladi oila va oilaviy munosabatlar muammolarining psixologik tadqiqi, oilaning an'anaviy funksiyalariga nisbatan munosabatlarning o'zgarib borayotganligi, o'zbek oilasidagi nizolar va ularning vujudga kelishiga doir ijtimoiy-psixologik xarakterdagi empirik ko'rsatkichlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy munosabatlar, ajralish, er-xotin, jamiyat, oilaviy nizolar.

Аннотация: данная статья представляет собой психологическое исследование проблем семьи и семейных отношений, изменение отношения к традиционным функциям семьи, выделены конфликты в узбекской семье и эмпирические показатели социально-психологической природы их возникновения.

Ключевые слова: семья, семейные отношения, расставаться, пара, общество, семейные конфликты.

Annotation: this article is a psychological study of family and family relationship problems, changing attitudes towards the traditional functions of the family, conflicts in the uzbek family and empirical indicators of a socio-psychological nature of their occurrence are highlighted.

Key words: family, family relationships, breaking up, couple, society, family conflicts.

O'zbekistondagi oilaviy ajralishlarning ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik muammolarini tadqiq etish borasidagi tadqiqod hukumat va xalqaro darajadagi muammolarning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida tadqiq etishni talab etadi. Shu sababli mazkur muammoni o'rganishda alohida tadqiqot dasturi va yo'nalishiga ega bo'lishni taqazo etadi. Oilaviy ajralishlar muammosi davlat siyosati darajasida doimiy ravishda statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilinadigan, uzoq yillar davomida hukumat tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobida muammoning oldini olishning chora-tadbirlar izlanib boriladi. Shunday bo'lsa-da, oilaviy ajralishlarning kamayish ehtimolligi va ularni oldini olish chora-tadbirlari doimiy tadqiqotlarga zarurat tug'dirmoqda.

Tadqiqotning tashkil etishda tadqiqot ob'ektlari sifatida Toshkent shahri, Navoiy shahri, Navoiy viloyati (Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa, Nurota tumanlari), Samarqand viloyati, Xorazm va Surxondaryo viloyatlaridagi ajrashgan oilalardan ayollar (295 nafar, 40 nafari yevropa millatiga mansub) va erlar (196 nafar, 40 nafari yevropa millati mansub), ularning farzandlari (120 nafar), ekspertlar sifatida mahalla fuqarolar yig'ini vakillari 63 nafar, psixologlar 40 nafar, aholi vakillaridan 120 nafar, yoshlar vakillari (150 nafar) jalb etildi. Ularning umumiy miqdori 984 nafarni tashkil etdi. Tadqiqotda natijalarning keng qamrov va ob'ektivligini ta'minlash maqsadida tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ko'rsatilgan hududlarda yashovchi oilalarning nikohi sud idoralari va fuqarolik holati dalolatnomasini yozish (FHDYO) bo'limlari tomonidan bekor qilingan sobiq er-xotinlar hamda ota-onasi ajralishgan o'smirlar bilan maxsus izlanishlar olib borildi. Respondentlarimizning tavsifi va miqdoriy ko'rsatkichlari quyidagilardan iboratdir.

Respondentlar jinsi, shahar va qishloq hududlarida yashashini hisobga olib, olti guruhga bo'lindi, har bir guruhga 40 nafardan, jami 240 nafar oilasi bilan ajrashgan erkak va ayol tadqiqotda ishtirok etdi.

Qishloq hududida istiqomat qilayotgan ajralish sub'ekti bo'lmish erkaklar guruhi bo'lib, biz ularni shartli ravishda "QE" deb belgilab oldik va matnda shu qisqartmadan foydalanishni lozim topdik. Yana bir ajralish sub'ekti bo'lgan guruh - qishloq hududida yashayotgan ayollar guruhi "QA" deb nomlandi. Navbatdagi guruhlar ajralish sub'ekti bo'lgan shaharda istiqomat qilayotgan erkaklar "SHE" va ayollar "ShA" deb belgilandi. Shuningdek, o'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari bilan solishtirish maqsadida tajribaga rus millatiga mansub ajralish sub'ekti respondentlari ham jalb etildi. Ular tegishli ravishda rus erkaklari "RE" va rus ayollari "RA" deb belgilandi.

Respondentlarning yosh darajalari 18-35 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha ma'lumot saviyalari quyidagicha: o'zbek guruhlaridagi erkak va ayollarning 28,2 foizi oliy, 25,0 foizi o'rta texnik, 33,7 foizi o'rta maxsus, 25,0 foizi o'rta ma'lumotlilar; rus oilalarida esa 45,0 foizni oliy, 15,0 foizni tugallanmagan oliy, 10,0 foizni o'rta texnik, 22,5 foizni o'rta maxsus va 10,0 foizni o'rta maktab ma'lumotiga ega bo'lganlar tashkil etdi. O'zbek guruhlarida QA ning 85,0 foizi 18-21 yosh oralig'ida, ShA va QE larining 70,0 foizi 20-24 yosh orasida, rus millati vakillarining 80,0 foizi nikohga kirgan yoshlari: erkaklarniki 22-29 yosh, ayollarniki 20-24 yoshga to'g'ri keldi (4- ilova, 1,2,5- jadvallar).

Er-xotin ajralishining bolalariga ko'rsatadigan salbiy ta'siri xususiyatlarini o'rganish uchun noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalardan 120 nafari (shulardan 80 nafari o'zbek, 40 nafari rus millatiga mansub) o'rganib chiqildi. O'zbeklardan 20 nafari qishloq hududlaridagi noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'g'il bolalar (QO'), 20 nafari shu hudud qiz bolalari (QQ), 20 nafari shahar o'g'il bolalari (ShO'), 20 nafari qiz bolalar (ShQ), 20 nafari rus

millatiga mansub o'g'il bolalar (RO') va 20 nafar qiz bolalar (RQ) tadqiqotda ishtirok etdi. Tadqiqotga jami 360 nafar respondent jalb qilindi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan respondentlardan empirik ma'lumotlar olish uchun quyidagi psixodiagnostik tadqiqot metodikalaridan foydalanildi.

1. Tadqiqot maqsadi, vazifalari va ob'ekti xususiyatidan kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqot uchun G'.B.Shoumarov, N.A.Sog'inov va F.R.Ro'ziqulovlar tomonidan maxsus ijtimoiy psixologik so'rovnoma (IPS) ishlab chiqildi. IPSlarning respondentlar e'tiboriga havola etilgan variantlari nisbatan kengroq bo'lib, ular yordamida olingan natijalarni tahlil qilishda biz tadqiqotimiz vazifalarini yoritish uchun ko'proq ahamiyatga daxldor ma'lumotlarni aks ettirgan savollarnigina tahlil uchun tanlab olishni va ilovada ham aynan shu ma'lumotlarnigina keltirib o'tishni lozim topdik(1-2 ilovalarga qaralsin). IPS ikki xil variantda bo'lib, ulardan birinchisi sobiq er-xotinlar uchun mo'ljallangan. Uning yordamida ushbu guruhlar respondentlari haqida, ularning yosh ko'rsatkichlari, ma'lumotlilik darajasi, yashash joyi, turmush tajribasi, ijtimoiy ahvoli va shu kabi qator ma'lumotlar olindi. Bu variant IPS ga kiritilgan savollarning yana bir turkumi, siniluvchilarning oila qurish motivlari, oilasining buzilish sabablari, oila buzilganidan keyin sobiq turmush o'rtog'ining ota-onasi va boshqa qarindoshlari orasidagi munosabatlari, ajralishning salbiy asoratlari ta'siri, ajralishdan keyingi yashagan joyi va hokazolar haqida ma'lumotlar olish imkoniyatini beradigan savollardan iborat. IPS yordamida olingan natijalarning foiz va ballardagi o'rtacha qiymati 4- ilovadagi jadvallarda keltirildi.

IPSning ikkinchi varianti esa o'smir yoshdagi bolalarga mo'ljallangan. Unda ota-onasi ajralishgan bolalarning ota-onasiga va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlariga hamda ajralishdan keyingi ijtimoiy kichik muhitda yuzaga kelgan vaziyatga nisbatan munosabatlari xususiyati haqida ma'lumot olishga qaratilgan savollar majmui mujassamlashgan.

Tadqiqotimiz ijtimoiy-psixologik yo'nalishga va oilaviy ajralishlarni o'rganishga mo'ljallangan. Oilaviy ajralishlardagi muammolarning asl sabablari nimadan iborat ekanligini tadqiq etish uchun esa tayyor baholash instrumentlarini topish qiyin. Shu sababli ushbu muammoning yechimini topish maqsadida psixologik o'lchash shkalalari tiplari tayangan holda ajralishlarning xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan mualliflik shkalalarini shakllantirishga e'tibor qaratildi. Tadqiqotda o'lchash shkalalarning eng maqbuli sifatida munosabat shkalasi tanlanildi. Ularning mazmuni sharhiga quyida to'htalinadi:

2. O'zbekistondagi oilaviy ajralishlarni ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik muammolarini aniqlash maqsadida "Oilaviy ajralishlarning ijtimoiy-psixologik muammolari va oqibatlarini baholash" shkalasiga" nomli mualliflik metodikasini shakllantirishga erishildi. Metodika psixologik o'lchash shkalalari toifasiga asoslanib ishlab chiqildi. Bu yerda o'zbek oilalaridagi ajralishlarga ekspert munosabatlar bildiri orqali aniqlanadi. Munosabatlar shkalasiga asoslangan ushbu metodika ekspertlarga taqdim etiladi. Ular o'zbek oilalardagi ajralishlarning

keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar nimadan iborat ekanligiga aniqlik kiritadilar. So'ngra baholash shkalasidan olingan natijalar statistika qoidalar asosida qayta ishlanadi. Ushbu mualliflik baholash shkalasi ilovada keltirilgan.

3. Navbatdagisi esa oilaviy ajralishlar uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan oilaviy zo'ravonlikni aniqlash anketasi, ya'ni "Oilaviy zo'ravonliklarni baholash shkalasi" anketasi. Ushbu baholash shkalasida o'zbek oilalaridagi ajralishlarning asl tabiati, ularning tiplari va vositalarini aniqlash uchun foydalanildi. Bu baholash shkalasi ham munosabatlar shkalasiga asoslangan. U 2-ilovada keltirilgan.

4. Dissertatsiyada o'zbek oilalarining turli avlod vakillarining oilaviy ajralishlarga munosabatini aniqlash uchun foydalanildi. Unda oilaviy ajralishlarning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi sakkizda mezonga asoslanib, turli yoshdagi respondentlarning munosabati o'rganildi. Bu esa o'zbek oilalaridagi ajralishlarning ijtimoiy-psixologik tabiatidagi o'ziga xosliklar to'g'risidagi sotsiumning fikrlari o'rganildi. Ajralishlarga faqat uning ishtirokchilari emas, balki atrofdagilarning bu boradagi fikrlari ham muhim hisobalandi. Ushbu baholash shkalasi 3-ilovada keltirilgan.

5. Ajrashgan o'zbek oilalariga xos xususiyatlardan biri oiladagi er-xotinlarning rollari va qadriyatlari, nikohdagilarning o'zaro mosliklarini o'rganishda iborat edi. Buning uchun mahalliy tadqiqotlarda keng qo'llanib kelinayotgan A.N.Volkova, T.M.Trapeznikovalarning "Nikohga da'vosi va rollar kutilmasi"ni o'rganish metodikasidan foydalanildi. Metodikada er-xotinlarning yettita rollari va qadriyatlari baholanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Jinsiy munosabatlar
2. Er-xotinlarning shaxs sifatida muvofiqligi
3. Maishiy-xo'jalik yuritish
4. Ota-ona tarbiyachilik funksiyasi
5. Ijtimoiy faollik
6. Emotsional-psixoterapevtik
7. Tashqi jozibadorlik

Mazkur metodikaning to'liq tafsiloti 4-ilovada keltiriladi.

6. Navbatdagi metodika esa ajralishgan oilalardagi nizo xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan. Ushbu so'rovnoma ham oila psixologiyasi muammolarini tadqiq etishda qo'llanilgan, YU.E. Aleshina, L.YA. Gozmanlarning "Er-xotinlarning nizoli vaziyatlardagi o'zaro ta'sir xususiyatlari" metodikasidir. Mazkur metodika orqali ajralishgan oilalarda nizolarning ta'siri qanday ekanligini o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu metodika 5-ilovada taqdim etilgan.

7. Tadqiqotda faktologik tahlil usuliga ham tayanildi. Ushbu tahlil usuli ijtimoiy fanlarda faktik tahlil kuzatuvlar, tajribalar yoki boshqa tadqiqot usullari natijasida olingan faktlarni

to'plash, tizimlashtirish va izohlashga qaratilgan. Bu o'rganilayotgan muammoga aloqador qonuniyatlarni aniqlash, aloqalarni o'rnatish va ijtimoiy hodisalar va jarayonlar to'g'risida ishonchli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bizning tadqiqotimizda faktologik tahlil jahon xalqlaridagi ajralishlar to'g'risidagi mavjud statistik ma'lumotlarni to'plash va ularning tizimlashtirish imkoniyatini beradi. Usulni qo'llashdan olingan natijalar o'zbek oilalaridagi ajralishlarga xalqaro miqyosidagi madaniy munosabatlar va jahondagi globallashuvning ta'siri bormi yoki yo'qligini aniqlashga ham xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarning davomi sifatida jahondagi globallashuv sharoitlarini ta'sirini aniqlashga mo'ljallangan "O'zbek oilalaridagi ajralishlarga boshqa etnomadaniy muhitlarning ta'sirini baholash" shkalasidan (F.R.Ro'ziqulov) foydalanildi.

7. Tadqiqotda qo'llanilgan metodikalarning empirik ko'rsatkichlarini qayta ishlashda zamonaviy usullardan foydalanishga e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda empirik ko'rsatkichlarning haqqoniyligi va xolisligini ta'minlash, mavjud statistik tafovutlarni aniqlashda IBM-SPSS 21 dasturidan foydalanildi. Ushbu dasturdagi noparametrik mezonlardagi ko'rsatkichlardagi farqlarni ishonchliligini aniqlashga xizmat qiluvchi Mann-Uitni (U), Kraskul Uoles (H) mezonlari, Styudent t - mezon va K.Pirsonning korrelyatsion tahlil usulidan ham foydalandik. Empirik ko'rsatkichlar tahlili dissertatsiyaning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi boblarida taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoumarov G'.B. Muhabbat va oila. -Toshkent: Ibn Sino, 1994. - 119 b.
2. Ro'ziqulov F.R. Ajralishlarni oldini olishga va oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan trening mashqlari. Uslubiy qo'llanma.
3. Абдулов С. и др. Азбука семейной жизни: беседы о любви, браке, семье /Н. Ростов н/д.: Кн.Изд-во,1983.-63с.
4. Абрамов М.С. Мужчины и женщины - Т.:Медицина, 1990.-160 с.